

QO'QON XONLIGIDA DAVLAT MANSABLARI VA UNVONLARI

Sobirov Jamshidbek Zokirjon o'g'li¹

talaba

Toychiyeva Diyora Isomiddin qizi²

talaba

¹⁻²Andijon Davlat Universiteti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.6657694>

O'zbekiston diyorida XVIII asrdan boshlab to'laqonlik uch davlat hukmronligi o'rnatildi. Bular Buxoro xonligi(amirligi), Xiva xonligi va Qo'qon xonligi edi. XVIII asr oxirida Qo'qon xonligi hududi faqat Farg'ona vodiysidan iborat bo'lgan. Bu davrda Norbo'tabiy vodiydagi barcha beklik va viloyatlarni Qo'qonga bo'ysundiradi. Uning davrida Andijon va Marg'ilon viloyatlari vodiydagi eng katta mulklar bo'lgan. Olimxon davrida Toshkent va uning atroflari bo'ysundirilgan. Tarixiy manbaalarda Toshkent mulki viloyat, beklik, Toshkent va Dashti qipchoq nomi bilan aytilgan. Umarxon davrida Xo'jand, O'ratepa va Jizzax atrofidagi yerlarga yurish qilingan. 1817-yil O'ratepa bosib olingan. XIX asr manbaalarida Qo'qon xonligi beklik ba'zan viloyat va sarkorlik kabi hududiy qismlarga bo'lingan. Ularni xon tomonidan tayinlanadigan beklar, hokimlar va sarkorlar boshqargan. Ayrim manbaalar Qo'qon xonligidagi 15 ta beklikning nomini keltiriladi. Bular : Qo'qon, Margilon, Shahrixon, Andijon, Namangan, So'x, Mahram, Buloqboshi, Aravon, Baliqchi, Chortoq, Navkat, Chust va Bobo darhon. "Turkestanskije vedemosti" (1876,Nº13) to'plamida esa Asaka,Marg'ilon, Baliqchi, O'sh, So'x, Koson va O'zgan sarkorlik sifatida tilga olinadi.

Otaliq- xon yoki xonzodaning murabbiysi,ularning homiylari. Musulmonqul va Alimquli otaliqlar davrida xon nomidan oliy hukumat sohibi bo'lib qolib , davlat boshqaruv ishlari to'liq shularning qo'llarida edi. Beklarbegi - ya'ni, beklarning beki. Bu unvon xonning vorisiga yoki ba'zi viloyatning hokimiga berilgan..Beklarbegilardan Isfara ve Chorko'h hokimi Sotiboldi va Toshkand vakili Lashkar beklarbegilar mashhur bo'lgan. Bulardan Lashkar (qushbegi) beklarbegi Toshkent va Dashti qipchoq mulkida 1810 yildan 1841 yilgacha hokim bo'lib, juda oqil va odil sanalgan. Mirzologini uning davrida boshlagan «Xulosat ul-ahvol» asarining muallifi Abu Ubaydullo Muhammad binni Sultonxo'ja (Eshonxo'ja Qori Toshkandiy) Lashkar beklarbegini samimiyat bilan eslaydi.

BIY — turkiy qabilalarning peshvolari (Buxoro amoratida IX darajali mansabdor). DEVONBEGI — xon devonining sardori. (Buxoroda XIII darajali amaldor) Qo'qon xonligi viloyatlaridan Toshkent va Dashti qipchoq mulkida ham devonbegi amali bo'lgan. Lashkar beklarbegi davrida bu o'lkada hatto ikki nafar — Hakim devonbegi va Xudoyberdi devonbegilar bu vazifani bajarganlar.

Ular xiroj va zakot ishlari, viloyatning hisob-kitob ishlarini olib borganlar. Hakim devonbegi Toshkent, Turkiston, Chimkent va Sayram yerlarida, Xudoyberdi esa Pishpekkacha bo'lgan hududlarda devonbegi edi. XAZINACHI — davlat xazinasining hisob-kitobiga javobgar shaxs. Viloyat markazida ham xazinachi bo'lgan.

INOQ — xonning xos va sirdosh mulozimi. ESHIKOG'ASI (chehraog'asi) — eshik oldidagi soqchi, posbon. Xon mahramlarining va soqchi-mulozimlarining sardori. Notanish kishilarni xon huzuriga ijozatsiz qo'ymaslikka javob beradi. PARVONACHI — bu unvon boshqa unvonlarning egalariga ham berilardi. Uning egasi o'zining xonga yaqinligidan foydalanib, xat va arizalarni saroyga olib kirib, u yerdan ketma-ket javobini olib chiqarardi. (Buxoroda XII darajali mansabdor.) DODXOH — saroy unvonlaridan. Xon oldiga boshqalarning iotak va maqsadlarini bayon etish huquqiga ega mansab. DASTURXONCHI — xon dasturxoniga, umuman, oshxonasiga javobgar mansab. SAROY QAROVULBEGISI — xon o'rdasining soqchilariga boshliq. TUNQATOR — ya'ni, tungacha uyg'oq soqchi. Xonning istirohati va yurishlari vaqtida muhofazat qilardi. Xonga yaqin kishilardan tayinlanardi.

OFTOBACHI — xonning xos mulozimlaridan. Uning yuvinishi va tahorati vaqtida xizmat qilardi. Qo'qon xonligida Abdurahmon oftobachi ibni Musulmonquli 1873 yili Ma'mur munduz (1879 yili 25 yanvar dorga osilgan) ko'targan qo'zg'olonni bostirish uchun yuborilgan lashkarga boshchilik qilgan edi. SHARBATDOR — eng oliy va faxriy unvonlardan. Xonga xos majlislarda va safarlarida xizmat qilardi. HIDOYATCHI — tortiq va sovg'alarni qabul qilib, xon nazaridan o'tkazardi.

SHIG'OVUL — elchilar va choparlarni xon huzuriga boshlab kirardi. Manba'lar ma'lumotiga qaraganda, shig'ovul mansabida bo'lgan zotning vazifalari juda keng bo'lgan. Muhammad Yunus mirzoboshi shig'ovullik mansabini Alimquli amirlashkar tomonidan olishi voqeasini quyidagicha bayon qiladi: «Bir kuni salomga yig'ilgan vaqtida (Yoqubbek) Badavlat (o'sha mashhur Yoqubbek Piskentiy — Qoshg'ar hokimi. — SH. V.) qo'lida bir kimxob to'n va Mirzo Ahmad qushbegi qo'lida ham bir kimxob to'n olib chiqib, Badavlat kaminaga kimxob to'nni kiydurub, tosh o'qqog'an tillo asoni «siz shig'ovul» deb qo'limga topshurdi. Mirzo Ahmad qushbegi to'nni Ahrorxon to'raga kiydurub, yana bir tillo asoni «siz udaychi» deb ani qo'lga topshurdi» (3). Bu mansabga o'tmasdan oldin Muhammad Yunus dodxohlik unvonida bo'lib, mirzoboshi vazifasida bo'lgan edi. Mirzoboshi bo'lganida unga Alimqul amirlashkar «bir katta tillo kimxob to'n kiydurub «Farg'onaning xirojini va tanoboni va zakot pullari (hisob-kitobini), askariyaning qishloq va g'alloti, qishloqlar xarojoti, sarkoru amloklar tahqiqi va

hisobi, askariya yarog'u aslaha daftari»ni taalluq qilgan ekan. SARKOR — xon amlokklarining boshlig'i; xonga tegishli ishxonalar, korxonalar hamda qurilish ishlariga boshchilik qilardi

QUSHBEGI(mirishkor) — xonga ov vaqtlarida qo'shilardi. Uning ovchi itlari, lochinlari va ov vaqtda istirohat ishlariga javobgar edi. SALOMOG'ASI— xon nomidan xalqqa salom beruvchi. KITOBODOR — saroy kutubxonasining mudiri. RISOLACHI— devondagi vazifalardan bo'lib, elchilar va ularning xat-xabarlariga javob berardi. MIRZABOSHI— mirzolarning boshlig'i Muhammad Yunus shig'ovul mirzoboshi etib tayinlanganida, quyidagi salohiyatlarni ham qo'lga kiritgan edi: «(Alimquli) Do'satga mehtarlik, ya'ni, zakotchilik sarposi, Muhammad Ibrohimga (u mirzoboshi edi. — SH. V.) inoqlik sarposi, Tursun Muhammadga sarkorlik, ya'ni, nikohona, tarakona va kema ijaralarini oluvchining sarposi, Mirzo G'afurga sarrofona, ya'ni, zarb urg'uchilar boshlig'ining sarposini berib, alarni mushofihat (og'eaki. — SH. V.) kaminaga tobe' bo'lunglar, deb amr qildilar»

SARMUNSHI — munshilarning sardori (boshlig'i). FAYZI — bu unvonning (?) amali va vazifasini hozircha aniqlay olmadik. Qo'qon manbalaridan «Muntahab ut-tavorix» asarida hamda Tojirning «G'aroyibi sipoh» asarida bu istiloh uchraydi. Masalan, Muhammad Hakimxon quyidagi ma'lumotni keltirgan: «Jahongirxo'jaro ba amali fayzigi sarafrozi baxshid va Sayid G'ozixo'jaro niz ba amali fayzi sarafroz kard» (Jahongirxo'jani va Sayid G'ozixo'jani fayziliq amali bilan sarafroz etdi). JAM'OG'A — xonning suhbat, qabuli va bazmlariga ishtirok etadigan kishilarni chaqirib (jam' qilib) kelardi. JARCHI (boshi) — xalq yig'iladigan joylarda xonning farmon va buyruqlarini jar solib e'lon qilardi. JIBACHI — jiba yasovchi (Buxoroda IV darajali mansabdor). CHOPQUCHI— pichoq yasovchi; xon va saroydagilar uchun qurollar yasab, qo'rchi vazifasini ham ijro etardi.

MEHTAR — xon otxonasining boshlig'i hamda zakotchi. Zakotxona mehtari zakot uchun aholidan eng yaxshi otlarni olardi. Miroxur vazifasi ham shunga yaqin, lekin u faqat otxonaga va otlarga javobgar edi. MIROB— ariq va suv oqsoqoli. Xonlikda bu amal harbiylarga «tanho» sifatida berilardi. Bunday harbiylar hujjatlarda «javoni jo'yodor» (arig'i bor askar), «yovari jo'yodor» (arig'i bor yovar) sifatida qayd etilgan. FARROSHBOSHI — saroy xizmatchilarining sardori. DORUG'ABOSHI — bu amaldor hosilni yig'ib olishdan oldin xiroj miqdorini aniqlardi. Zakotchilarning boshlig'i SHOTIR — xonning rikobi oldidan yurib, odamlarni xon kelishidan xabardor etib, ularni ta'zimga chorlovchi. UDAYCHI — xon rikobi oldidan yurib, uning sha'niga baland ovoz bilan maqtovli so'zlar va hamdu sanolar aytib boruvchi

XIX asrning 70-yillarida Qo'qonda bo'lgan Aleksandr Kun ma'lumotiga qaraganda, qushbegidan quyida bo'lgan mansabdorlar xon qabuliga kira olmay, uning ahli rikob (uzangi ahli) qatoriga kirmaganlar. Bu mansabdorlardan ba'zilarining yillik daromadi quyidagicha bo'lgan: Inoq — xonlikda uch kishi bu mansabga sohib bo'lib, har birlari 1000 tangadan; zakotxona mehtari — 500 tanga; jarchiboshi — 300 tanga; mirzoboshi, munshi, miroxur 200 tangadan olardilar. Otaliq — 2000 tanga; parvonachi — 1500 tanga; dodxoh 1000 tanga; eshikog'asi — 500 tanga; jibachi esa 70 tanga olardilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

- 1.Haydar Bobobek “Qo’qon tarixi” . 1992.
- 2.Shodmon Vohid. Qo’qon xonligi mansab va unvonlari.- O’zbek tarixi ,adabiyoti va madaniyati. 13.09.2019
- 3.Mullo Olim Maxdum Xo’ja. “Tarixi Turkiston”,- T.1915
- 4.www.arxiv.uz